

## Umumta'lim maktab yosh o'qituvchilari ta'tilni hamkorlikda samarali o'tkazmoqda

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 2-dekabrda "Umumta'lim maktablarida ta'lim sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish va metodik qo'llab-quvvatlash uchun respublikaning barcha oliy ta'lim muassasalariga birlashtirilgan maktablar to'g'risidagi 87-08-664-sonli xatida ko'rsatilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida, maktablarda o'quv jarayoni va o'quv uslubiy faoliyatni modernizatsiyalash hamda darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilish yuzasidan "Umumta'lim muassasalari yosh pedagog kadrlari uchun ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish" bo'yicha "Professional ta'lim va jismoniy madaniyat" kafedra qoshida faoliyat ko'rsatayotgan "Pedagogik mahorat maktabi" kursiga jalb etildi. Institutimiz tomonidan Toshkent shahar va Toshkent viloyati halq ta'limi bo'limlari tomonidan ikki tomonlama hamkorlik MEMORANDUM i imzolangan. Bu borada birlashtirilgan 10 ta Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 12,58,150,271 va 274 - maktablar va Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumanidagi 41,51,55,56 va 64-maktablardan 5 nafardan 50 nafar yosh o'qituvchilar onlayn asosida o'z malakalarini oshirishmoqda.



Malaka oshirish jarayoniga institutning salohiyatli professor - o'qituvchilari: professor Z. Ismailova, professor v.b. Ximmataliev, pedagogika fanlari doktori R. Choriev, dotsent R. Jumaniyazov, dotsent M. Xoshimova, dotsent v.b. D. Muqumova, katta o'qituvchi p.f.n. D. Mustafaevalar jalb qilingan. Ular tomonidan ZOOM platformasi asosida "Hozirgi zamon o'qituvchilariga qo'yilgan talablar", "O'qituvchining innovatsion faoliyati", "Darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish metodikasi", "O'qituvchining nutq madaniyati, kommunikativ kompetentligi", "Fanlar bo'yicha Ochiq darslarni tashkil etish metodikasi", "O'qituvchilarning pedagogik kompetentligi" kabi mavzularda ma'ruza darslarini olib bormoqdalar. Bilamizki, bunday hamkorlik natijalari ertangi kun yosh o'qituvchilarga kelgusidagi pedagogik faoliyatlari uchun dasturamal bo'ladi.

**TIQXMMI matbuot xizmati**